

3
2023

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal



BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA
G'ayrat SHOUMAROV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Komola FARFIYEVA
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA

Mas'ul kotib
Sayyora Alimxodjayeva
Adabiy muharrir
Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda sahifalovchi
va dizayn
Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qilinmaydi.

Muallifflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislari:
O'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxisi markazi "MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "MAKTAB VA HAYOT" dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziya ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI – 1019



MUNDARIJA

SH.T. ERGASHEV.

Kasb-hunarlarni ongli ravishda tanlash – shaxs va jamiyat manfaati..... 2

F.A. AKRAMOVA.

Barkamol avlod tarbiyasida oilaviy psixologik xizmatni qo'llash masalalari..... 4

F.K. OLIMOVA.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali ijodiy faoliyatga tayyorlash..... 6

E.U. XUDOYBERDIYEV.

Maktab ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirish dolzarb muammo sifatida .. 9

R.M. ABDULLAYEVA.

Ta'lim va hayot sifatining kasb tanlashga bog'liqligi 11

S.S. JO'RAYEV.

Ota-onha qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunar tanlashga tayyorlash zarurati..... 13

N.Z. ABIDOVA.

Bo'lajak logopedlarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish qonuniyatları va tamoyillari ... 15

M.S. MAXMUDOVA.

Bolalarni nutqiy jihatdan maktab ta'limiga tayyorlashda korreksion-pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari 18

Y.O. FAIZIEVA.

Состояние доступности окружающей среды и возможности их создания для школьников и студентов в инклюзивном образовании..... 19

N. DALIMOVA.

Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod haqidagi qarashlari hamda o'quvchilarda hayotiy qadriyatlarni shakllantirish 21

D.O. MIRZAYEVA.

Ontogenetda sensomotor funksiyalarning rivojlanishi..... 23

M. MANSUROV.

O'qituvchi kasbini tanlashda ta'lim va amaliyot integratsiyasining o'mi va ahamiyati 25

G.O. OCHILOVA.

Maktab o'quvchilarining innovatsion faoliyklarini rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati..... 27

D.M. XAKIMOVA.

O'qituvchi innovatsion salohiyatining tuzilishi va uning funksional modeli 29

M. DEHQONOVA, Z. XUSNIDDINOVA.

Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish 31

D.M. MAXMUDOVA.

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash 32

D.R. BABAYEVA, K.T. AYTMURATOVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida baduy asarni sahnalashtirish texnologiyasi..... 34

R.Sh. ALEYOVA.

Bolalarni vatanga e'tiqod va milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyalash mazmuni 36

G. BAYTILEUOVA.

Maktabgacha ta'limming innovatsion tizimini tashkil etish 38

M.R. PO'LATXO'JAYEVA.

Koxlear implantlari bo'lgan bolalar ota-onalariga tibbiy-pedagogik maslahatlar 40

A.D. OSTANAQULOV.

O'smirlik davridagi ruhiy salomatlikni qiyosiy-empirik o'rganish..... 42

A.A. СУЛТАНОВА.

Гендерные особенности факторов риска суицидального поведения у подростков..... 44

X.SH.YUNUSOVA, G.QAYUMOVA.

Innovatsion ta'lim klasteri muhitida bo'lajak defektoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash texnologiyalari..... 47



INNOVATION EDUCATION CLUSTER INCLUSIVE EDUCATION TECHNOLOGIES FOR FUTURE DEFECTOLOGISTS

X.Sh.Yunusova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi
G.Qayumova, Surdopedagogika yo'nalihi 2-kurs magistratura bosqichi talabasi

В данной статье описаны технологии подготовки будущих дефектологов к инклюзивному образованию в условиях инновационного образовательного кластера.

Ключевые слова и понятия: инклюзивное образование, педагогическая десантura, наблюдатель, ассистент, модератор, фасилитатор, наставник, инновационная технология.

This article describes the technologies for preparing future defectologists for inclusive education in an innovative educational cluster.

Keywords and concepts: inclusive education, pedagogical landing, observer, assistant, moderator, facilitator, mentor, innovative technology.

Ta'lif klasteri asosida inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash yuzasidan shu metodik tavsiya sifatida keltirishimiz mumkinki, inklyuziv ta'lif samaradorligiga ta'sir yetuvchi ijtimoiy institutlardan biri bu mahalladir. Fuqarolar yig'ini raisi va xodimlarining ish tartibi qirq soatlik va olti kunlik ish haftasidan kelib chiqqan holda Fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan tasdiqlanadigan ichki tartib qoidalariga ko'ra belgilanadi. Bundan namoyon bo'ladiki, mahalla oilalarga ta'sir ko'rsatadi. Mahallalarda oilalar bilan ishslashning turli masalari ko'rib chiqiladi.

Mahalla faollari va ota-onalar inklyuziv ta'lifga tayyorlarligini o'rGANISH maqsadida "**Metodist ona-hamkor ota**" deb nomlangan seminar trening dasturi ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu seminar trening dasturi o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi kerak deb hisoblaymiz. Bu seminar orqali mahalla faollari va ota-onalarning ta'lif klasteri asosida inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirishning samarali usullari bilan tanishtirib boriladi.

Ushbu dasturga muvofiq ma'lum bir mavzular ketma-ketligi asosida seminar treninglarni tashkil etish talab etiladi. Quyida mavzular ketma-ketligi ko'rsatilgan.

"Metodist ona-hamkor ota" deb nomlangan seminar trening mavzulari

| Nº | MAVZULAR | VAQTI |
|----|--|-----------|
| 1 | Inklyuziv ta'lif bu..... | 30 daqiqa |
| 2 | Inklyuziv ta'lif ishtirokchilari kimlar? | 30 daqiqa |
| 3 | Ta'lif klasterining mazmun mohiyati. | 30 daqiqa |
| 4 | Inklyuziv ta'lifning afzallikkleri | 30 daqiqa |
| 5 | Men bolamni qanchalik bilaman | 30 daqiqa |
| 6 | Bolamning kelajak portreti | 30 daqiqa |
| 7 | Keksalik bugundan boshlanadi | 30 daqiqa |
| 8 | Erta uchun bugun dastur | 30 daqiqa |
| 9 | Bolamning ertasi mening kelajagim | 30 daqiqa |
| 10 | Eng yaxshi investitsiya bu — bolaga qilingan investitsiyadir | 30 daqiqa |

Ta'lif klasteri sharoitida ta'lif samaradorligini oshirish maqsadida "**Pedagogik desantura**" professionallar klubti tashkil etildi. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika fakulteti" Maxsus pedagogika yo'naliishi 1-kurs volontyor desant talabalar klub rahbari, biriktirilgan trener o'qituvchilar tomonidan

saralab olindi. Ushbu klubni ochishdan ko'zlangan maqsad, o'quv jarayonini diversifikatsiyalash uchun talabalarning klaster obyektlarida dars o'tish tajribasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ish samaradorligini oshirish uchun "Pedagogik desantura" professionallar klubti ish faoliyatining tamoyillari ishlab chiqildi:



- Ixtiyoriylik tamoyili
- O'ziga ishonch tamoyili
- O'zarlo ishonch tamoyili
- Jamoaviy harakat tamoyili
- Tezkor diagnostika tamoyili
- Aybdor qidirmaslik tamoyili
- Manzilli zabit yetish tamoyili
- Qulay pozitsiya tamoyili

Inklyuziv ta'lim tizimida innovatsion klasterni joriy yetish natijasida biz ta'lim tizimida, maktab o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish yuzasidan har tomonlama sezilarli darajada natijalarini ko'rishimiz mumkin.

"Pedagogik desantura" professionallar klubni ish faoliyatini o'z yo'l xaritasiga ega.

1. Talabalarni kuzatish
2. Diagnostika qilish
3. Amaliy mashg'ulotlarda imitatsion muhit yaratish
4. Maktab o'qituvchisiga biriktirish
5. Dars o'tish

Desant talabalarimiz dars jarayonini avval kuzatib "Maxsus pedagogika" kafedrasi professor-o'qituvchilar bilan birlgilikda tahlil qilib olishadi. Har bir desant talaba o'z didaktik sandig'iga ega bo'lib dars jarayonida tayyorlagan metodikalardan imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib foydalanishi talab etiladi. Sinfdag'i barcha imkoniyati cheklangan hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar desant talaba nazaridan chetda qolmaydi. Chunki bu o'quvchilardagi kichik ijobjiy o'zgarish ham bizni maqsad sari yetaklovchi kuch sanaladi. Biz qilgan ish alohida yordamga muhtoj o'quvchilarimiz oddiy, passiv ishtirokchi sifatida emas, balki faol o'quvchi bo'lib ertangi ta'lim bosqichiga qiyinchiliklarsiz o'ta oladigan bo'lishi kerak. Mavzularni faol o'zlashtira olgan shaxs keyingi oliy ta'lim jarayonida birinchidan, akademik bilimlarga ega bo'la oladi. Ikkinchidan, o'ziga bo'lgan ishonch ortganligi sababli psixologik jihatdan ongini tayyorlab olgan bo'ladi. Uchinchidan, boqimandalik hissini yengib o'tib, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qila oladi. Hozirgi kunda zamонавиy kadrlarga qo'yiladigan talablardan biri transformatsion faoliyat asosida o'quv jarayonlarini olib borish hisoblanadi.

Transformatsion faoliyatda mavzu yoki maqsadimiz o'zgarmaydi balki ma'lum bir elementi o'zgaradi xolos. Misol uchun, o'qituvchi darsni olib borish uchun ma'lum bir metodikani tayyorlab keladi, lekin o'quvchining beqaror holati bu metodikaning ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin. Bu holat dars maqsadiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak, ya'ni transformatsion faoliyat o'quvlarini, ko'nikmalari talab yetiladi. Bundan ko'rinish turibdiki, shu

usulning o'zida ma'lum bir elementni o'zgartirish kerak bo'ladi.

"Pedagogik desantura" professionallar klubining yana bir muhim jihat shundaki, talaba o'zini o'qituvchi o'rnida ko'ra oladi. O'tilishi kerak bo'lgan mavzu yuzasidan 1 hafta oldin tanishgan bo'lishi kerak, dars uchun kerak bo'lgan metodikalar va resurslarni tayyorlab oladi, harakat nuqtasini taqsimlab oladi, dars yakunlangandan so'ng talabalar o'zarlo muhokama jarayonini olib boradi.

"Pedagogik desantura" professionallar klubni talabalarini pedagogik faoliyatning innovatsion shakllarini 5 bosqich asosida amalga oshiradilar.

- Kuzatuvchi
- Assistent
- Moderator
- Fasilitator
- Mentor

Toshkent viloyati Chirchiq shahri 15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilariga 2021-2022 o'quv yili 3 chorakning 3-oyidan 4-chorak yakuniga qadar "Maxsus pedagogika" kafedrasining 21 nafar desant talabalarini biriktirdi. Har bir talaba boshlang'ich sinfdagi imkoniyati cheklangan yoki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilardan 1 nafarini o'ziga biriktirib oldi va dars jarayonida har tomonlama shu o'quvchiga ko'mak berdi. Desant talabalar biriktirilishidan avval 10 nafar imkoniyati cheklangan yoki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilardan 3 tasi dars jarayonlarida she'r yodlay olmagan, 4 nafar o'quvchining nutqida nuqsoni mayjud edi, qolgan 3 nafar o'quvchi tortinchoq, o'z fikrini erkin bayon eta olmas edi.

Desant talabalar ko'magidan so'ng, 3 nafar o'quvchi 2-3 tadan she'rni yod oldi, 4 nafar o'quvchining lug'at boyligi oshdi, bog'langan nutqi shakllandi, ichki va tashqi nutqi rivojlandi, 3 nafar o'quvchi o'z xohishi bilan qo'l ko'tarib fikrini bayon eta olishga o'rgandi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortdi.

Bundan ko'rinish turibdiki, individual kasbiy rivojlantirish dasturi asosida talabalar o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlandi.

Adabiyotlar

1. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent, Iqtisod-Moliya 2011
2. Бизяева.А.А Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителя. Дисс канд психол наук. С-Пб-1993.
3. Karimov I.I. O'qituvchi, ustoz, murabbib talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. Risola. -Qo'qon DPI, 2009
4. www.ziyonet.uz

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2016-yil 27-apreldagi
0037-soni guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Nashriyot hisob tabog'i 5,11.

Bosmaxona manzili: "POYTAXT EXCLUSIVE" M.Ch.J.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30. Buyurtma №00-00
Bosishga ruxsat etildi 09.02.2023. Format 60x84, 1/8.
Shartli hisob tabog'i 5,5. Adadi 100 nusxada.